

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

**O‘ZBEK VA INGLIZ MUMTOZ ADABIYOTIDA KO‘Z TIMSOLINING  
SEMANTIK VA QIYOSIY-GNOSEOLOGIK TAHLILI<sup>14</sup>****Sapaeva Feruza Davlatovna**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jahon adabiyoti kafedrasini professori

E-mail: [feruzasapayeva86@gmail.com](mailto:feruzasapayeva86@gmail.com).

ORCID ID: 0009-0004-1079-8754

**Xidirboyeva Rohila Sapparboy qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: [rohilaxidirboyeva2911@gmail.com](mailto:rohilaxidirboyeva2911@gmail.com).

ORCID ID: 0009-0007-8291-9203

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek mumtoz adabiy manbalariga tayanilgan holda ko‘z timsolining semantik hamda gnoseologik xususiyatlari qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqot ishining maqsadi Sharq (xususan, Alisher Navoiy ijodi) va G‘arb (Uyg‘onish davri adabiyoti, ayniqsa Shekspir asarlari) an‘analarida ko‘z timsolining ma‘naviy hamda psixologik mazmunini aniqlab berish va ularning o‘zaro o‘xshash hamda farqli jihatlari yoritib berishdan iborat. Ushbu tadqiqotda komparativ, semantik, arxitepik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni korstadiki, o‘zbek mumtoz she‘riyatida ko‘z timsoli asosan basirat, tasavvufiy ma‘rifat hamda ilohiy idrok bilan bog‘liq holda talqin qilinadi, ingliz mumtoz adabiyotida esa u vijdon, inson ruhiyati, ehtiros hamda dramatik ziddiyatlarni belgilab beruvchi muhim badiiy vosita sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, har ikkala Sharq va G‘arb mumtoz she‘riyati tizimida ham ko‘z timsoli bilish va o‘zlikni anglashning universal ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ko‘z timsoli madaniyatlararo universal gnoseologik timsol sifatida insoniyat ongining tashqi idrok va ichki anglash o‘rtasidagi bog‘lovchi unsur ekanligini ko‘rsatadi.

**KALIT SO‘ZLAR**

Ko‘z timsoli, mumtoz adabiyot, komparativistika, semantika, gnoseologiya Navoiy, Shekspir, tasavvuf, arxitep.

**Received:** December 25, 2025**Accepted:** January 6, 2026**Available online:** May 10, 2026

<sup>14</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sapaeva F., Xidirboyeva R. O‘zbek va ingliz mumtoz adabiyotida ko‘z timsolining semantik va qiyosiy-gnoseologik tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 158-167.

**SEMANTIC AND COMPARATIVE-GNOSEOLOGICAL ANALYSIS OF  
THE SYMBOL OF THE EYE IN UZBEK AND ENGLISH CLASSICAL  
LITERATURE.**

**Sapaeva Feruza Davlatovna**

Uzbek State University of World Languages  
Professor of the Department of World Literature  
E-mail: [feruzasapaeva86@gmail.com](mailto:feruzasapaeva86@gmail.com).  
ORCID ID: 0009-0004-1079-8754

**Khidirboeva Rohila Saparboy kizi**

Uzbek State University of World Languages  
basic doctoral student  
E-mail: [rohilaxidirboyeva2911@gmail.com](mailto:rohilaxidirboyeva2911@gmail.com).  
ORCID ID: 0009-0007-8291-9203

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>In this article, based on English and Uzbek classical literary sources, the semantic and epistemological features of the image of the eye are analyzed within the framework of comparative literary studies. The purpose of the research work is to determine the spiritual and psychological content of the image of the eye in the traditions of the East (in particular, the work of Alisher Navoi) and the West (the literature of the Renaissance, especially the works of Shakespeare) and to highlight their similarities and differences. Comparative, semantic, archetypal, and contextual analysis methods were used in this study. The results of the analysis showed that in Uzbek classical poetry, the image of the eye is mainly interpreted in connection with insight, mystical enlightenment, and divine perception, while in English classical literature, it is interpreted as an important artistic tool that defines conscience, human psychology, passion, and dramatic conflicts. Also, in the system of classical poetry of both the East and the West, the image of the eye appears as a universal symbol of knowledge and self-awareness. According to the research results, the image of the eye, as a universal intercultural epistemological image, shows that human consciousness is a connecting element between external perception and internal understanding.</p>	<p>Image of the eye, classical literature, comparative studies, semantics, epistemology Navoi, Shakespeare, Sufism, architecture.</p>

## СЕМАНТИЧЕСКИЙ И СРАВНИТЕЛЬНО-ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗНОЙ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ГЛАЗ В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Сапаева Феруза Давлатовна**

профессор кафедры мировой литературы

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: [feruzasapayeva86@gmail.com](mailto:feruzasapayeva86@gmail.com)

ORCID ID: 0009-0004-1079-8754

**Хидирбоева Рохила Сапарбой кизи**

базовый докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

E-mail: [rohilaxidirboyeva2911@gmail.com](mailto:rohilaxidirboyeva2911@gmail.com)

ORCID ID: 0009-0007-8291-9203

---

### АННОТАЦИЯ

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье, опираясь на английские и узбекские классические литературные источники, анализируются семантические и гносеологические особенности образной репрезентации глаз в контексте сравнительного литературоведения. Целью исследовательской работы является определение духовного и психологического содержания образов взгляда и глаз в традициях Востока (в частности, в творчестве Алишера Навои) и Запада (литература эпохи Возрождения, особенно произведения Шекспира) и выявление их сходств и различий. В данном исследовании использовались методы сравнительного, семантического, архетипического и контекстуального анализа. Результаты анализа показали, что в узбекской классической поэзии образ глаза интерпретируется в основном в связи с прозрением, суфийским просвещением и постижением божественного, в то время как в английской классической литературе он интерпретируется как важное художественное средство, позволяющее передать совесть, человеческую психику, страсть и драматические конфликты. Также в системе восточной и западной классической поэзии образ глаза предстает как универсальный символ познания и самосознания. Согласно результатам исследования, образ глаза как межкультурный универсальный гносеологический символ показывает, что человеческое сознание является связующим звеном между внешним восприятием и внутренним пониманием.

Символ глаза, классическая литература, компаративистика, семантика, гносеология, Навои, Шекспир, суфизм, архетип.

**KIRISH**

Ramziy obrazlar, badiiy timsollar bir necha yuz asrlardan beri mumtoz adabiyotning kichik bir vositasi sifatida talqin qilinayotgan bo'lsada, buyuk adabiyot namoyandalari bunday badiiy timsollardan o'z asarlarida mohirona foydalanishgan. Ma'lum bo'ladiki, tasavvuf adabiyotining timsollar olami va istilohlari mundarijasini bilmay turib, nafaqat irfoniy she'riyat, balki Sharq mumtoz so'z san'atini ham butun mazmun-mohiyati va ma'no qirralari bilan har tomonlama keng va chuqur tushunib bo'lmaydi (Imomaliyeva M, 2024, 388). Mumtoz adabiyotdagi eng muhim timsollardan biri ko'z obrazidir. Sivilizatsiya tarixida va turli milliy adabiyotlarda ko'z universal semantik ma'noga ega bo'lib, bilim, yorug'lik, idrok, nazorat, hayot, ma'naviy ong kabi asosiy tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ko'z nafaqat jismoniy ko'rish a'zosi, balki bilish, axloqiy hukm va ichki idrokning ramziy ifodasi sifatida ham talqin etiladi. Shuning uchun ham u Sharq va G'arb adabiyotidagi eng barqaror va serqatlam motivlardan biri bo'lib qolaveradi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ko'z timsoli o'zbek mumtoz adabiyoti doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, G'arb mumtoz adabiyoti, xususan, ingliz Uyg'onish davri adabiyoti bilan qiyosiy gnoseologik nuqtayi nazardan yetarlicha tadqiq etilmagan. Sharq adabiyotida ko'z, asosan, ma'naviyat, tasavvuf ma'rifati va ilohiy idrok bilan bog'liq bo'lsa, G'arb adabiyotida u ko'pincha inson ruhiyati, his-tuyg'ulari va dramatik to'qnashuvni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu talqinlarning qiyosiy tahlili adabiy tafakkurning ham umuminsoniy, ham madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida ko'z timsolining falsafiy va ma'naviy ma'nolari o'rganilib, u inson qalbini ifodalash, bilish va ilohiy haqiqatni idrok etish vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, tadqiqotda jahon adabiyotining eng yirik namoyandalardan biri Vilyam Shekspirning tragediya va sonetlarida ko'zning psixologik, estetik va dramatik funksiyalari tahlil qilingan. Har ikki adib ijodida ko'z inson tabiatini anglash, ichki his-tuyg'ularini ifodalash, voqelikni idrok etish vositasi sifatida markaziy o'rinni egallaydi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz mumtoz adabiyotida ko'z timsolining semantik va gnoseologik xususiyatlarini aniqlash hamda qiyosiy tahlil orqali uning Sharq va G'arb adabiy an'analari doirasidagi o'xshash va farqli jihatlarini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- ko'z timsolining semiotik va arxetipik tabiatini aniqlash;
- o'zbek mumtoz adabiyotida uning tasavvufiy-irfoniy talqinini tahlil qilish;
- ingliz mumtoz adabiyotida ko'z obrazining psixologik va dramatik funksiyalarini o'rganish;

- Sharq va G'arb adabiy an'analari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash;
- ko'zning universal gnoseologik timsol ekanligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz an'alaridagi mumtoz adabiy matnlar, xususan, Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir asarlari tanlangan. Tadqiqotning predmetini mazkur asarlarda ko'z timsolining semantik, poetik va gnoseologik talqini tashkil etadi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot Sharq va G'arb mumtoz adabiyotidagi ramzlar tizimini qiyosiy o'rganish orqali adabiy tafakkurning universal qonuniyatlarini tushunishga hissa qo'shadi.

### **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda qiyosiy adabiy tahlil, semantik tahlil, arxetipik tanqid va kontekstual talqinni birlashtirgan fanlararo uslubiy tizim qo'llanilgan. Tadqiqot qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillariga asoslangan bo'lib, u badiiy ifodaning universal qonuniyatlarini aniqlash maqsadida madaniyatlar o'rtasidagi adabiy an'alar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganadi. Tadqiqotda o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy va ingliz Uyg'onish davri adabiyoti, xususan, Vilyam Shekspir asarlarida ko'zning ramziy obrazi qiyosiy tahlil qilingan. Adabiy timsol sifatida ko'z bilan bog'liq ma'nolarni o'rganishda semantik tahlil usulidan foydalaniladi. Ushbu tadqiqotda arxetipik tanqid ham muhim rol o'ynaydi. Karl Gustav Yungning arxetiplar nazariyasiga tayanib, ko'zni "Kuzatuvchi" yoki "Ilohiy ko'rish" arxetipining namoyon bo'lishi sifatida talqin qilish mumkin. Kontekstual tahlil ramzni uning madaniy va falsafiy fonida talqin qilish uchun qo'llaniladi. O'zbek mumtoz adabiyotida ko'z talqiniga tasavvuf metafizikasi chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lib, unda zohiriy ko'rish (basar) botiniy ko'rishdan (basira) farqlanadi. Bundan farqli o'laroq, ingliz Uyg'onish davri adabiyotida inson psixologiyasi, axloqiy faolligi va hissiy tajribasi ustuvor bo'lgan gumanistik qadriyatlar aks ettirilgan. Shuning uchun matn talqini tarixiy, falsafiy va diniy kontekstlarga e'tibor qaratgan holda amalga oshirildi.

### **ASOSIY QISM**

Ko'z timsolining arxetipik mohiyati va semantik tizimi uning adabiyotda oddiygina bir tasvir emas, balki chuqur ma'no yuklangan badiiy vosita sifatida namoyon bo'lishida ko'rinadi, negaki Yuriy Lotmaning ta'kidlashicha, *“san'atda ko'z oddiy tasvirdan yuksakroq turuvchi, yuqori darajada semiotik yuklangan detal”* bo'lib, quyidagi asosiy funksional ma'nolarni bildiradi (Lotman Y., 1973, 236):

- a) Gnoseologik funksiya: Bilish jarayonini, tashqi olamdan ma'lumot olish va uni tahlil qilish imkoniyatini ifodalaydi. Bu, adabiy qahramonning reallikni qanday idrok etishini aniqlab beradi.

- b) Ekspressiv funksiya: Soʻz bilan ifodalab boʻlmaydigan kuchli ichki his-tuygʻularni (ishq, nafrat, ruhiy iztirob) toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalash kanali vazifasini oʻtaydi.
- c) Regulyativ funksiya: kuzatish, baholash va tanqid qilish orqali axloqiy va ijtimoiy nazoratni ramzlashtiradi.

K.G.Yungning arxetip nazariyasiga koʻra, koʻz – bu “Kuzatuvchi” arxetipi yoki “Ilohiy nazar” arxetipining modifikatsiyasidir. Ushbu arxetip barcha madaniyatlarda ilohiy hokimiyat, taqdir va mutlaq adolat bilan bogʻlanadi. Qiyosiy adabiyotshunoslik (komparativistika) nazariyasining talablariga muvofiq, turli milliy adabiyotlarni oʻrganishda timsollarning funksional ekvivalentligi (tengligi) asosiy mezon hisoblanadi. Koʻz timsolini qiyosiy tahlil qilishda uning madaniy farqlariga qaramay saqlanib qolgan universal funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Tarbiyaviy funksiya: axloqiy tanlov va maʼnaviy yoʻnalishni belgilash.
2. Estetik funksiya: goʻzallikning ifodasi yoki badiiy tasvirning dramatikligini oshirish.
3. Metafizik funksiya: insonning jismoniy (zohiriy) va ruhiy (botiniy) olamlar oraligʻidagi mavqeini belgilash.

I.Haqqulning taʼkidlashicha, “Sharq olamida basirat gʻaflatga tushmay, his-tuygʻuga berilmay haqiqatni mukammal idrok aylash, kelajakni oldindan koʻrish salohiyati hamda qudsiyat nuridan yorishgan koʻngil qudrati deb tan olinadi” (Haqqul I., 2007, 30). Mazkur gʻoya Sharq tafakkurida koʻz timsolining oddiygina jismoniy koʻrish vositasi boʻlibgina qolmasdan, balki maʼnaviy idrok va haqiqatni anglash vositasi sifatida aytib oʻtilgan. Tasavvuf taʼlimotida koʻz – zohiriy koʻrishdan botiniy anglashga olib boruvchi vosita boʻlib, u qalbning uygʻoqligi, haqiqatni idrok etish qobiliyati va ilohiy maʼrifatga yetishish jarayonini ifodalaydi. Shu bois mumtoz adabiyot namoyandalari koʻz obrazidan insonning ruhiy poklanishi, nafs bilan kurashi hamda Haqni tanish yoʻlidagi ichki holatlarini ifodalashda keng foydalanganlar. Natijada, koʻz timsoli badiiy matnlarda tashqi koʻrish chegarasidan chiqib, maʼnaviy sezgi va ichki mushohada ramziga aylanadi. Bu qarash Navoiy ijodida tizimli ravishda asoslangan. Xususan, *Lison ut-tayr* asarida tashqi koʻzning ojizligi va ichki idrokning ustuvorligi quyidagi bayt orqali ifodalanadi:

*Koʻz bila koʻrmak erur ahli ishi,*

*Koʻngul koʻzi ochilmogʻi erur sirli kishi.* (Navoiy, 1996, 148)

Bu baytda koʻz jismoniy idrok emas, balki qalbning uygʻoqligi bilan bogʻliq maʼnaviy hodisa sifatida talqin qilinadi.

*Zohiriy koʻrish (basar) va nafsiy tugʻyon* – Navoiyning “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida koʻz timsoli birinchi navbatda nafsning ifodasi sifatida salbiy axloqiy holatlarni tanqid qilish uchun ishlatiladi. Zohiriy koʻz (*basar*) oʻtkinchi dunyo

ne'matlariga va shahvoniy lazzatlarga moyil bo'lib, tamas va ochko'zlikning birlamchi manbai sanaladi. Sharq adabiyoti nazariyasida komil inson barcha ilmlardan, zohiriy va botiniy donishdan boxabar, qalbida g'ayb asrori jo'sh urib turgan zot deb hisoblangan (Komilov N., 2009, 399).

Bu fikr *Mahbub ul-qulub*da ochiqchasiga talqin qilinadi:

*O'zi pok-u ko'zi pokni inson desa bo'lur.*

*Tili arig' va ko'ngli arig'ni musulmon desa bo'lur.* (Navoiy, 2018, 132)

*Botiniy ko'rish (idrok) va haqiqatga intilish* - Sharq falsafasi birinchi navbatda idrokni - yurakning ko'zini ta'kidlaydi. Idrok moddiy cheklovlardan oshib ketuvchi va voqelikning asl mohiyatini, so'nggi haqiqatni, ya'ni ma'rifatni anglash imkonini beruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Tasavvufning aynul yaqin ta'limotiga ko'ra, ma'naviy bilim nafaqat nazariy o'rganish, balki ko'rish va his qilishni o'z ichiga olgan shaxsiy ruhiy tajriba orqali ham mustahkamlanadi. Tushunish idrokning shunday yuqori darajasiga erishishning muhim kaliti sifatida qaraladi. Navoiy bu g'oyani quyidagi mashhur baytda ifodalaydi:

*Haq vahmidin ulki yig'lamoq fan qilg'ay,*

*Ul ashk aning ko'zini ravshan qilg'ay.*

Mazkur parchada ko'z nafs bilan ittifoqda bo'lgan xavfli kuch deya tasvirlanadi va uni tiyish zarurati ta'kidlanadi.

Klassik lirik she'riyatda idrok haqiqatni idrok etishning qalb nuqtai nazari orqali chuqurligini bildiradi, u shunchaki tashqi ko'rishdan ham oshib ketadi. Binobarin, mumtoz she'riyatda oshiqning ko'zlari va chehrasi ko'p hollarda ilohiy nurning timsoli sifatida ko'riladi, oshiqni ma'rifat sari yetaklovchi ramziy timsol sifatida xizmat qiladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodida oshiq nigohi oddiy estetik obyektidan ham oshib ketadi; u ilohiy yorug'lik manbai bo'lib, ichki idrok - idrok orqali erishiladi.

*Yuzing ko'zgidin olamda yuz nuru safo paydo,*

*Quyosh andin aningdekkim quyoshdin zarra nopaydo.*

Demak, bunday tasvir oshiqning ko'z bilan emas, balki idrok orqali anglashga intilishi ramzi bo'lib, ma'naviy barkamollik va ma'rifat sari sayohatni ifodalaydi. Basirat mumtoz poetikamizda shu yuksak idrok darajasining kaliti hisoblanadi. Shuningdek, mumtoz lirika asarlarida ma'shuqaning ko'zi – ilohiy ishqning zohiriy ifodasi, ya'ni oshiq uchun ma'rifatga intilishning estetik obyektini sanaladi (Komilov N., 2009, 346).

G'arb adabiyoti: *ko'z timsollining psixologik va dramatik talqini* – ingliz mumtoz adabiyotida, xususan, uyg'onish davri va undan keyingi adabiy jarayonda ko'z timsoli faqat tashqi go'zallik yoki jismoniy idrok belgisi sifatida emas, balki inson shaxsiyatining ichki olami, ruhiy kechinmalari va individual tafakkurini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida talqin qilinadi. Gumanistik

dunyoqarashning shakllanishi natijasida adabiyot markaziga inson va uning ichki dunyosi qo'yildi, shu sababli ko'z obrazi inson ongining faolligi, his-tuyg'ulari, axloqiy tanlovi va o'zligini anglash jarayonini ramziy ifodalashga xizmat qildi (Bloom, 1998, 128). Ayniqsa, shoir va yozuvchilar ko'z timsoli orqali shaxsning ruhiy holatini, ichki ziddiyatlarini hamda jamiyat bilan bo'lgan munosabatini ochib berishga intildilar. Shu jihatdan, ko'z obrazi individual psixologiyaning badiiy ifodasi sifatida inson qalbi va tafakkuriga olib boruvchi ramziy "oyna" vazifasini bajargan.

Bu holat Shekspir dramaturgiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, *Hamlet* tragediyasida qahramonning ichki vijdon azobi tashqi so'z va ichki nigoh o'rtasidagi ziddiyat orqali ochiladi:

*The harlot's cheek, beautied with plastering art,  
Is not more ugly to the thing that helps it  
Than is my deed to my most painted word.  
O heavy burden!* (Hamlet, III.,1)

*Fohishaning yuzidagi upa-elikni  
Artib boqar ersang, bo'lmas shunchalar mudhish,  
Ammo mening kirdikorim bundan ham qo'rqinch,  
Chiroyli so'z ostida ham. O, qanday og'ir!* (Kamol J., 2011, 85)

Ko'z – ichki olami oynasi – g'arb adabiy an'analarida ko'z ruhning oynasi konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu talqinda ko'z insonning vijdonini, yashirin niyatlarini, ichki ziddiyatlari va axloqiy xarakterini aks ettiruvchi yagona ishonchli guvohdir. Mazkur tushuncha *Qirol Lir* tragediyasida falsafiy darajaga ko'tarilgan. Gloucester obrazi orqali Shekspir tashqi ko'rish va ichki idrok o'rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi:

*I have no way, and therefore want no eyes;  
I stumbled when I saw: full oft 'tis seen.* (King Lear, IV.,1)

*Menga yo'l ham, ko'rar ko'z ham darkorligi yo'q.  
Ko'zim ochiq tekis yo'lda turtingan shaxsman* (G'ulom G'., 2009, 84)

Shekspir dramaturgiyasida ko'zlar qahramonlarning ruhiy holatidagi keskin o'zgarishlarni – Otelloning shubhalanishini yoki Qirol Lirning aqldan ozishini bevosita ifodalovchi kuchli dramaturgik vositadir. Ko'rish (voqeaga guvohlik) ko'pincha adolat tiklash yoki qasos olish jarayonining boshlanishi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi.

*Ehtiros va iroda quroli* – ingliz mumtoz adabiyotida ko'z sevgi nazari sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shekspir sonetlarida, asosan, sevgining sabab va oqibati bu ma'shuqaning nigohi deya atalgan. Shunga ko'ra, 24-sonetda ko'z sevgi jarayonining boshlanish nuqtasi sifatida talqin qilinadi:

*Mine eye hath played the painter and the hath stelled*

*The beauty's form in table of my heart.* (Shakespeare W., 1998. 429)

*Ko'zim rassom bo'lib, timsolingni, yor, -  
Siyam varag'iga chizmish haqqoniy.*

Biroq, bu yerda ko'rishning maqsadi Sharqdagi kabi mutlaq Ilohiy ma'rifat emas, balki, asosan, insoniy sevgi, ehtiros va go'zallikni estetik qadrlashdir. G'arb adabiyotidagi ko'zlar ba'zida xiyonatni yashirish yoki ko'rmaslik funksiyasini ham bajaradi, bu esa syujetning dramatik keskinligini oshiradi (Liebert E, 2003, 152-165).

### XULOSA

Shunday qilib, o'zbek va ingliz mumtoz adabiyotida ko'z timsolining asosiy semantik ma'no funksiyalari quyidagi jadvalda qiyosiy tarzda ko'rsatilgan.

1-jadval. Ko'z timsolining Sharq va G'arb mumtoz adabiyotidagi qiyosiy talqini

<b>No</b>	<b>Xususiyat</b>	<b>O'zbek mumtoz adabiyoti (Navoiy)</b>	<b>Ingliz mumtoz adabiyoti (Shekspir)</b>	<b>Qiyosiy xulosa</b>
<b>1.</b>	<b>Bosh mazmun</b>	Basirat, tasavvufiy ma'rifat	Ruhiy holat, vijdon, ehtiros	Bilish va o'zlik ramzi
<b>2.</b>	<b>Yetakchi funksiya</b>	Ruhiy poklanish	Psixologik ifoda	Idrok vositasi
<b>3.</b>	<b>Yo'nalish</b>	Ilohiy haqiqatga intilish	Insoniy munosabatlar	Universal ramz
<b>4.</b>	<b>Badiiy roli</b>	Ma'naviy yetuklik	Dramatik konflikt vositasi	Ruh va ong ko'zgusi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har ikki adabiy tizimda ko'z timsoli bilish va o'zlikni anglashning muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Biroq Sharq mumtoz adabiyotida asosan ilohiy ma'rifat bilan bog'liq bo'lsa, G'arb adabiyotida esa inson ruhiyati hamda ijtimoiy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy adabiyotida ko'z timsoli ko'proq vertikal, ya'ni soddaroq qilib aytganda, ma'naviy yuksalish ahamiyat kasb etib, shaxslarni ma'naviy poklanishga chorlaydi. Aksincha, Shekspir asarlarida u ko'proq gorizontal, ya'ni shaxslararo munosabatlar va ichki psixologiya talqinlarini o'zida mujassam etgan, shaxsni vijdoni va atrofi bilan bog'liq holda baholaydi. Shunga qaramay, ikkala adabiy doirada ham ko'z ideal shaxsning bilim qobiliyatini, axloqiy qarorlarini va taqdirga bo'lgan nuqtayi nazarini shakllantiradigan asosiy badiiy va nazariy vosita bo'lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bloom H. Shakespeare: The Invention of the Human. – New York: Riverhead Books, 1998. – 770 p.
2. G'ulom G., Shayxzoda M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: SMI-ASIA, 2009. – 354 b.
3. Haqqul I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007. – 33 b.
4. Imomaliyeva M. I. Irfoniy g'oya va timsollar: an'ana va o'ziga xoslik // Kokand University Herald. – 2024. – №13. – B. 388.
5. Kamol J. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Tamaddun, 2011. – 380 b.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009. – 447 b.
7. Liebert E. Rendering “More Equal”: Eve's Changing Discourse in Paradise Lost // Milton Quarterly. – 2003. – Vol. 37(3). – P. 152–165.
8. Lotman Yu. M. Semiotika kino i problemy kinoestetiki. – Tallinn: Eesti Raamat, 1973.
9. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 172 b.
10. Shakespeare W. Shakespeare's Sonnets / Ed. K. Duncan-Jones. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 691 p.
11. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
12. Zohidov A. Tasavvuf va inson ma'naviyati. – Toshkent: Fan, 2012.

**REFERENCE:**

1. Bloom H. (1998). Shakespeare: The Invention of the Human. New York: Riverhead Books.
2. G'ulom G., Shayxzoda M. (2009). Selected Works. Tashkent: SMI-ASIA.
3. Haqqul I. (2007). Returning to Navoi. Tashkent: Fan.
4. Imomaliyeva M. I. (2024). Irfani ideas and symbols: tradition and originality. Kokand University Herald, No. 13.
5. Kamol J. (2011). Selected Works. Tashkent: Tamaddun.
6. Komilov N. (2009). Sufism. Tashkent: Movarounnahr – Uzbekistan.
7. Liebert E. (2003). Rendering “More Equal”: Eve's Changing Discourse in Paradise Lost. Milton Quarterly, 37(3), 152–165.
8. Lotman Yu. M. (1973). Semiotics of Cinema and Problems of Film Aesthetics. Tallinn: Eesti Raamat.
9. Navoi A. (2018). Mahbub ul-qulub. Tashkent: Yoshlar Publishing House.
10. Shakespeare W. (1998). Shakespeare's Sonnets. Oxford: Oxford University Press.
11. Qayumov A. (1991). Alisher Navoi. Tashkent: Gafur Gulom Publishing House.
12. Zohidov A. (2012). Sufism and Human Spirituality. Tashkent: Fan.